

**O‘ZBEK ADABIYOTI HIKOYALARIDA IDIAL OTA VA UNING OILADAGI O‘RNI MASALASI****Qayumova Gulasal Abduraufovna,***Shahrisabz davlat pedagogika instituti**Filologiya fakulteti til va adabiyot kafedrası o‘qituvchisi*[gulasalqayumova12@gmail.com](mailto:gulasalqayumova12@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotidagi ota obrazining oiladagi o‘rni va uning ideal qiyofasi tahlil qilinadi. Hikoya janri doirasida ota timsolining milliy qadriyatlar, ma’naviyat va tarbiya bilan bog‘liqligi ko‘rsatilib, jahon adabiyotidagi ota obrazlari bilan solishtiriladi. Tadqiqotda Abdulla Qahhor, Odil Yoqubov, Qo‘chqor Norqobil va O‘lmas Umarbekov hikoyalari misol qilib keltirilib, ota obrazining psixologik, ijtimoiy va ma’naviy jihatlari yoritilgan. Shu bilan birga, ota obrazining tarixiy jarayonlar, ijtimoiy o‘zgarishlar va oiladagi mas’uliyat bilan bog‘liq transformatsiyasi tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** Ota obrazi, ideal ota, oila qadriyatlari, o‘zbek hikoyachiligi, milliy ruh, tarbiya, jahon adabiyoti, psixologik tahlil, ijtimoiy mas’uliyat, hikoya janri.

**Аннотация.** В данной статье анализируется роль отца в семье и его идеальный образ в узбекской литературе. В рамках повествовательного жанра показана связь образа отца с национальными ценностями, духовностью и воспитанием, а также проведено сравнение с образами отцов в мировой литературе. В исследовании приводятся примеры из произведений Абдуллы Каххора, Одиля Якубова, Кочкора Норкобила и Олмаса Умарбекова, освещаются психологические, социальные и духовные аспекты образа отца. Одновременно анализируется трансформация образа отца в связи с историческими процессами, социальными изменениями и обязанностями в семье.

**Ключевые слова:** образ отца, идеальный отец, семейные ценности, узбекская литература, национальный дух, воспитание, мировая литература, психологический анализ, социальная ответственность, повествовательный жанр.

**Abstract.** This article analyzes the role of the father in the family and his ideal image in Uzbek literature. Within the framework of the narrative genre, the connection of the father's image with national values, spirituality and upbringing is shown, and it is compared with father's images in world literature. The study cites the stories of Abdulla Qahhor, Odil Yakubov, Kochkor Norqobil and Olmas Umarbekov as examples, and highlights the psychological, social and spiritual aspects of the father's image. At the same time, the transformation of the father's image in connection with historical processes, social changes and responsibilities in the family is analyzed.

**Key words:** Father image, ideal father, family values, Uzbek storytelling, national spirit, upbringing, world literature, psychological analysis, social responsibility, narrative genre.

**Kirish.** Adabiyot janrlar tizimida hikoya janri eng faol va o‘z auvditoriyasiga ega janrlar sirasiga kiradi. Hikoya janri o‘zbek adabiyotida XIX asrning 1-choragida kirib kelgunga qadar, xalq og‘izaki ijodi zamirida shakllangan edi. Uning ravnaq topishi va shakllanishi uchun Jadid adabiyoti namoyondalarining xizmatlari beqiyosdir. Jumladan Abdulla Qadiriyning “Uloqda” hikoyasi aynan o‘zbek adabiyotida hikoya janriga tamal toshini qo‘ydi. O‘zbek hikoyachiligi jahon hikoyachiligidan quyidagi jihatlari bilan farq qiladi: Milliy ruh va urf-odat ustuvorligi – oila, ota-ona, mahalla qadriyatlari markazda ma’naviy-axloqiy yo‘nalish kuchliligi – hikoya tarbiyaviy va ibratli xulosaga olib keladi. “Oyimning bir qiziq odati bor: har qachon yangiroq kiyim kiymoqchi bo‘lsam, ko‘zini olakula qilib: “Qaqshag‘ir, kir qilasan, to‘y-po‘yga borganda kiyarsan!” — deb qarg‘ay

boshlaydi. Ozgina “shayton yig‘isi” qilmaguningcha ish o‘nglanmaydi. Bu gal ham o‘shandog‘ yig‘idan qilib olganimdan keyin, kiyimlarimni kiyib, shohi qiyiqchamni belimga bog‘lab oldim”. Sodda, hayotiy realizm – ortiqcha murakkabliksiz, xalqona til va ruh ichki ruhiy tahlil va milliy mentalitet uyg‘unligi – shaxs va jamiyat ziddiyati milliy muhitda ochiladi. O‘zbek hikoyasi jahon hikoyachiligidan ko‘ra ko‘proq milliy qadriyat, ma‘naviyat va oilaviy muhitga tayanishi bilan e‘tiborga molikdir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Jahon adabiyotida ota ko‘proq individual, psixologik murakkab va ba‘zan begonalashgan tipda tasvirlanadi. O‘zbek hikoyalarida esa ota — milliy qadriyat, oilaparvarlik va ma‘naviy ibrat timsoli sanaladi. Umumiy jihat — mas‘uliyat va tarbiya; farqi — talqin usuli va milliy ruh ustuvorligidadir. Jahon adabiyotida ota obrazining o‘rganilishi

Ota obrazi adabiyotda insoniy qadriyatlarni, oilaviy va ijtimoiy mas‘uliyatni aks ettiruvchi eng muhim badiiy personajlardan biridir. Jahon adabiyotida ota obrazi turli davr va janrlarda keng o‘rganilgan va turlicha talqin qilingan.

Antik davr adabiyotida ota figuralari ko‘pincha qahramonning tarbiyasi va axloqiy shakllanishida markaziy o‘rin tutgan. Masalan, G‘arb klassik tragik komediyalarda ota obrazlari bolalarining taqdiri va qarorlari bilan chambarchas bog‘liq tasvirlangan.

O‘rta asr adabiyotida esa ota obrazi ko‘proq oilaviy va ma‘naviy mas‘uliyatni ramziy qiladi. Bu davrda ota mehribonlik, adolat va diniy qadriyatlar timsoli sifatida tasvirlanadi. Zamonaviy adabiyotda ota obrazlari yanada murakkablashgan va psixologik, ijtimoiy, hatto siyosiy kontekstlarda ham talqin qilinadi. Ular nafaqat oilaning, balki jamiyatning muhim qahramonlari sifatida ko‘rsatiladi, bolalar bilan munosabatlar orqali jamiyatdagi qadriyat va muammolarni ochib beradi. Jahon adabiyotida ota obrazi insoniy fazilatlarini, tarbiyaviy mas‘uliyatni va oilaviy qadriyatlarni aks ettirishda doimo markaziy o‘rin tutgan. Turli davr va janrlarda uning tasviri o‘zgarib borgan bo‘lsa-da, ota obrazining asosiy funksiyasi – hayotiy tajriba, ma‘naviy me‘yor va bolalarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish bo‘lib qoladi. O‘zbek hikoyanavislari ko‘plab mavzular doirasida ijod qilishgan. Ijodkorlar obraz tanlash mahorati doimo yetakchi o‘rin egallaydi. Ota obrazi ko‘plab ijodkorlar hikoyalarida idallashtirilgan qahramon sifatida keltiriladi. O‘zbek hikoyanavislari ijdida hikoyalarning darajasi obraz tanlash mahorati bilan uzviy bog‘liq. Chunki obraz orqali asli hikoyadagi mavjud syujet ketma-ketligi darajalanadi. Buning natijasida obraz orqali hikoyalar o‘z ta‘sr doirasiga ega boladi. Mustaqillikga qadar o‘zbek adabiyoti o‘z boshidan ko‘plab zamonlarni o‘tkazdi. Ularning har birida o‘ziga xos ijtimoiy qiyinchiliklar, psixologik tramalar va oilaviy muammolar yuzaga keldi. Ota obrazi ana shu jarayonlarda sayqallanib o‘z darajasini topgan, tipiklashtirilgan murakkab obraz sifatida badiiy asar tarkibiga kirib keldi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ota obrazi barcha davrlarda ham bir xil ko‘rinish va bir xil holatda tasvirlanmagan. Chunki adabiyot rivoji natijasida insoniyat ham takomullasha brogan. Natijada obrazlar umumiy va xususiy xarakterlana boshladi. Obrazlarda mavjud

darajalar tipiklashtirilib, unga tasviriy ifoda yuklana bordi. antik davr adabiyotida ota obrazi muhim badiiy timsol sifatida keng uchraydi. Masalan: Iliada — Priam obrazi orqali ota mehrining fojiviy va insoniy qiyofasi ochiladi. Odissey — Odissey va Telemak munosabatida ota va farzand o'rtasidagi sadoqat va kutish motivi yoritiladi. Shoh Edip — Lai va Edip timsolida ota-farzand taqdir fojeasi ko'rsatiladi. Bu asarlar asosida antik davrda ota obrazi hokimiyat, mas'uliyat, taqdir va mehr ramzi sifatida tahlil qilindi.

Ota obrazi nafaqat antik davr adabiyotida, balki xalq og'izaki ijodida ham yuqori mavqega ega obraz hisoblangan. Xalq og'izaki ijodida ota obrazi nasihatg o'y, tarbiyasi, sarkarda va ustoz maqomlariga erishgan. Ammo bu xarakterlar barcha doston tarkiblarida ham ifoda etilmagan. Chunki barcha zamonlarda ham ota obrazi iobiy qahramon sifatida etirof etilmasdan, u salbiy tomonlama ham tahlilga tortiladi. Badiiy asarlarda oilasini o'ylamaydigan, zolim, mehsiz otalar ham talaygina uchraydi. Ularning harakatlari orqali asar tarkibida o'quvchi e'tibori tortiladi. O'z navbatida qahramonga nisbatan nafratlansh tuyg'usini sezadi.

O'zbek adabiyotida Qo'chqor Norqobilning "Jontomir" hikoyasida Nurboy ota obrazi haqiqiy idial ota sifatida namoyon bo'ladi. Uning farzand yo'lida umrini savurishi bu chinakam otalik mehri bilan o'lchanadigan jihatdir. Garchi Nurboy otaning qalb istiroflariga achinsakda, uning ota sifatida farzandiga bo'lgan mehriga tan bermasdan iloji yo'q. Umrining so'ngiga qadar farzandi yo'lida termilish, har gal muallif uyiga tashrif buyurganda, undan farzandini so'roqlash, uning vafotiga bir soniya ham ishonmasdan, uni yodi bilan yashash bu ota maqomiga haykal qo'ygudek qahramon tasviridir.

**Tahlil va natijalar.** A.Qahhorning "Anor" hikoyasidagi Turobjon obrazi ham chin ma'noda idial ota obrazining yorqin namunasi. Uning hali tug'ilmagan farzandiga nisbata bo'lgan munosabati otalik darajasini yanada ulug'laydi. Uning farzandi uchun o'z etiqotiga qarshi borishi ham bu otalarcha bo'lgan mehri daryolikdir. "Anor" hikoyasi kambag'al oilaning maishiy hayoti orqali otaning ruhiy iztirobini ochib beruvchi chuqur psixologik asardir. Hikoyada Turobjon obrazi — mehribon, ammo ojiz, g'ururi baland, ammo imkoniyati tor ota timsolida gavdalanadi. Ota mehnatkash va mas'uliyatli shaxs. Turobjon o'zining moddiy ahvolini ochiq tan oladi: "Saharimardondan suv tashib, o'tin yorib, o't yoqib bir oyda oladiganim o'n sakkiz tanga pul." Bunda otaning mehnatkashligini va oila ta'minoti uchun tinimsiz harakatda ekanini ko'rsatadi. U xotining boshqorong'ilik istagini bajarishga ojiz, ammo befarq emas. Asal olib kelishi ham shundan dalolat: "Tansiq narsa, xursand bo'larmikansan debman." Demak, u o'zicha mehr ko'rsatmoqda, faqat imkoniyati cheklangan. ota obrazi nafaqat oilaviy, balki ijtimoiy-psixologik ma'no kasb etadi. Abdulla Qahhor Turobjon timsolida kambag'al otaning ichki fojiasini badiiy yuksaklik bilan tasvirlagan.

Odil Yoqubovning "Vido" hikoyasida Qobil ota obrazi chinakam ma'noda mehnatkash, halol, farzandlari uchun mehnatda umri o'tgan ota timsolidir. Uning idiallik darajasi shundaki, u ikki farzandining ham oilasini tinchligi, kam-u ko'stsiz yashashi

tarafdori ekanligida. U xatto farzandi Nodirjondan xafa bo'lsada, unga ranjiganinida bildirmaydi, uning olim bo'lishini, hurmat toposhini istaydi. Xatto kasal holatda ham uning uchun kuch to'plab, ahvolini yashiradi. Garchi bu o'rinlarda Nodirdan nafratlansakda, Qobil otaning qatiatiga tan bermasdan ilojimiz yo'q. Chin ma'noda Qobil ota haqiqiy o'zbek jaydari otalarining birgina ko'rinishi xalos.

O'lmas Umarbekovning "Charos" hikoyasida bog'bon ota obrazi ham idial qahramon siraiga kiradi. Uni yaratish jarayonida individual yondoshgan adibimiz, kam so'z va kam fikr orqali, chinakam tasvirni ifodalay oladi. Allanechuk vaziyat sabab qahramnimiz bilan bog'bon ota o'rtasida psixologik aloqa o'rnatiladi. Garchi bolalar bog'ga o'g'irlikga kiragan bo'lsada bog'bon ota buni salbiy baholamaydi. Bola bog'bonning qo'lga tushsada, bog'bon otaning samimiy bag'ri kengligi sabab ham bir umr bu bog' egasini unutmaydi. "Yig'lama, nega yig'laysan, tentak, — dedi u boshimni silab. — Bir bosh olibsanlar, ikki bosh olibsanlar, nima bo'пти? Kamayib qoladimi? Qara, bu uzumlarni! Qancha axir. Hammaga yetadi. Qani, bu yoqqa yur! Chol qo'limdan ushlab yetaklab ketdi. Bog'ning o'rtasidagi ishkonga kirdim. Ishkom to'la yong'oqdan-yong'oqdek keladigan qora charos edi.

— Tuzukmi? — dedi chol menga qarab va kulib qo'ydi. Ko'kragiga tushib turgan qalin oppoq soqoli silkinib ketdi. — Tuzuk bo'lsa, shundan uzib beraman.

U qiyig'iga osib qo'ygan pichog'ini qinidan sug'urib uzum uza boshladi. Birpasda yaktagining ikkala bari to'lib ketdi.

— Mana, bolam, ol. O'rtoqlaringga ham olib bor." Bog'bon otaning asl yutug'i bunda emas, aslida u o'zida mavjud bo'lgan o'zbekona tarbiyani, farzandiga meros qoldirganidadir.

O'zbek oilalarida ota beqiyos siymo, oilaning shohi, taminot manbai, nasixatgo'y va fir-u komil zoddir. Ammo zamonaviy qarashlar, jarayonlar, siyosiy urushlar natijasida oilaning tarkibida yemirilish sodir bo'la boshladi. Ota oiladan uzog'ga, Vatan himoyasiga shaylangan paytlar uchradi. Bedarak ketgan otalar, oulasiga yarim jon holatda qaytgan otalar va qahramonlarcha urushlarda vafot etgan otalar tiplari ko'paya bordi. Ijtimoiy jarayonlarning natijasida, otaning oiladagi movqeye o'zgardi. Ba'zi oilalar uchun ota maqomi noaniq siymo sifatida ongda muhirlangan bo'lsa, ba'zilar uchun yetib bo'lmas orzu bo'ldi.

Umumiy xulosaga keladigan bo'lsak o'zbek adabiyotida idial ota tasvirlari nihoyatda ko'p uchraydi. Hikoyanavislar ijodida ota obrazining darajasi yuqori o'rinda ekanligi, hikoyada obrazlarning ishtiroki bilan ham sezilib turadi.

**Xulosa va takliflar.** Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib aytish mumkinki, o'zbek adabiyoti hikoyalarida ota obrazi nafaqat badiiy personaj, balki milliy ong va ma'naviy qadriyatlarining markaziy timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Ota obrazi o'zbek hikoyachiligida oilaning tayanchi, ma'naviy ustuni, tarbiya manbai va fidoyilik ramzi sifatida talqin etiladi. Ayniqsa, hikoya janrining ixcham va psixologik chuqurlikka moyil

tabiati ota timsolining ichki kechinmalari, iztiroblari va mas'uliyatini yanada yorqin ochib berishga imkon yaratadi. Tahlil qilingan asarlarda ideal ota obrazi turli ijtimoiy sharoit va tarixiy davrlarda har xil ko'rinishda gavdalansa-da, uning asosiy mohiyati o'zgarmaydi. Masalan, Abdulla Qahhorning "Anor" hikoyasidagi Turobjon obrazi kambag'al, imkoniyati cheklangan, biroq mehr va mas'uliyatda yuksak otaning timsolidir. Odil Yoqubovning "Vido" hikoyasidagi Qobil ota esa sabr-toqatli, farzandi baxtini o'z baxtidan ustun qo'ygan fidoyi ota sifatida tasvirlanadi. Qo'chqor Norqobilning "Jontomir" hikoyasidagi Nurboy ota obrazi esa fojiviy sadoqat va otalik mehrining cheksizligini ifodalaydi. O'lmas Umarbekovning "Charos" hikoyasidagi bog'bon ota esa xalqona donishmandlik va bag'rikenglik timsoli sifatida gavdalanadi. Jahon adabiyotida ota obrazi ko'proq individual-psixologik murakkablik, ichki ziddiyat va begonalashuv orqali tasvirlansa, o'zbek hikoyalarda u, avvalo, milliy mentalitet va oilaviy qadriyatlar bilan uyg'un holda talqin qilinadi. Antik davr asarlarida (masalan, "Iliada", "Odisseya", "Shoh Edip") ota obrazi taqdir, hokimiyat va fojiviy mas'uliyat bilan bog'liq holda ochilgan bo'lsa, o'zbek hikoyachiligida u ko'proq ma'naviy poklik, sabr, fidoyilik va tarbiyaviy ibrat mezonlari bilan belgilanadi. Shuningdek, tarixiy jarayonlar, urushlar, siyosiy o'zgarishlar va ijtimoiy siljishlar ota obrazining transformatsiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Ayrim davrlarda ota oilaning yagona ta'minotchisi va himoyachisi sifatida gavdalansa, boshqa davrlarda u ma'naviy yetakchi, sabrli kuzatuvchi yoki ichki fojiaga duch kelgan shaxs sifatida tasvirlanadi. Biroq har qanday tarixiy sharoitda ham ota obrazi o'zining asosiy vazifasi — farzand tarbiyasi va oilaviy mas'uliyat mezonidan chekinmaydi. o'zbek hikoyachiligida ideal ota obrazi milliy ruh, ma'naviy yetuklik, sabr-toqat, halollik va fidoyilik kabi fazilatlar bilan belgilanadi. U jamiyatning axloqiy modeli sifatida xizmat qiladi va o'quvchini ezgulikka, mas'uliyatga hamda ota-onaga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu jihatdan, ota obrazi o'zbek adabiyotida nafaqat estetik, balki ijtimoiy-ma'naviy ahamiyatga ega bo'lgan muhim badiiy timsol hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Homer. Iliada. – Qadimgi yunon adabiyoti yodgorligi. – Afina: Antik nashr, mil. avv. VIII asr.
2. Homer. Odisseya. – Qadimgi yunon adabiyoti yodgorligi. – Afina: Antik nashr, mil. avv. VIII asr.
3. Sofokl. Shoh Edip: tragediya. – Afina: Antik nashr, mil. avv. V asr.
4. Habibullayev A. Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2010. – 256 b.
5. Norqobil Q. Jontomir: hikoya. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1985. – B. 45–52.
6. Tolstoy L. N. Otalar va bolalar. – Moskva: Xudojestvennaya literatura, 1870.
7. Umarbekov O. Charos: hikoya. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1970. – B. 78–85.
8. Qahhor A. Anor: hikoya. Tanlangan asarlar. – Toshkent: O'zbekiston davlat nashriyoti, 1960. – B. 112–118.
9. Yoqubov O. Vido: hikoya. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1975. – B. 63–70.